

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Sh.Hakimova O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar	118
I.Bohodirov, B.Jurayev Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov Mustaqillikning ilk yillarida o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova Qadimgi Farg'onaning samoviy tulporlari	140
N.Komilov Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev Turkistonda mol-mulk musodarasini va rekvizitsiya	158
S.Isroilova, G.Karimova Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin Lirik she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandart isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev Ogahiy tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik.....	182
E.Qurbonova Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev So'z yasalanishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'ldosheva Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova "Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Попубай Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi.....	238

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI O‘ZGARISHLAR**СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННАЯ СИТУАЦИЯ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА – НАЧАЛЕ XX ВЕКА****THE AGRICULTURAL SITUATION IN THE SAMARKAND REGION IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY – THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY****Bo‘tayev Jonibek¹****¹Bo‘tayev Jonibek***–O‘zbekiston Milliy universiteti Manbashunoslik va arxivshunoslik kafedrasida tayanch doktoranti.***Annotatsiya**

Mustamlaka davrida Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi sohalari va mohiyati qaytadan isloh qilindi. Maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar, dehqonchilik ekinlariga oid statistik ma‘lumotlar va materiallar, ekin turlari va paxtachilik kengayishining qishloq xo‘jaligiga ta‘sirleri aniqlandi. Shuningdek, hudud Zarafshon okrugi va keyinchalik Samarqand viloyati deb nomlangan tarixiy davrda ushbu sohada rus ma‘muriyati tomonidan amalga oshirilgan o‘zgarish hamda yangiliklar ta‘siri baholandi. Shu bilan birgalikda, viloyatdagi ekin maydonlari va hosil miqdoriga oid statistik ma‘lumotlar ko‘rib chiqildi.

Аннотация

В колониальный период были реформированы аграрный сектор и сущность Самаркандской области. В статье определены реформы Российской империи во второй половине XIX – начале XX веков в области земледелия в Самаркандской области, статистические данные и материалы о сельскохозяйственных культурах, видах культур и влиянии экспансии хлопка на сельское хозяйство. Также дана оценка влияния изменений и нововведений, осуществленных российской администрацией в этой сфере в исторический период, когда регион назывался Зеравшанском округом, а затем Самаркандской областью. При этом учитывались статистические данные о посевных площадях и урожайности в регионе.

Abstract

During the colonial period, the agrarian sector and the essence of the Samarkand region were reformed. The article defines the reforms of the Russian Empire in the second half of the 19th – early 20th centuries in the field of agriculture in the Samarkand region, statistical data and materials on crops, types of crops and the impact of cotton expansion on agriculture. An assessment is also given of the impact of the changes and innovations carried out by the Russian administration in this area in the historical period when the region was called the Zeravshan okrug, and then the Samarkand region. At the same time, statistical data on sown areas and yields in the region were taken into account.

Kalit so‘zlar: *irrigatsiya, sun‘iy sug‘orish, lalmi yerlar, statistika, paxta, gubernator.*

Ключевые слова: *орошение, искусственное орошение, засушливые земли, статистика, хлопок, губернатор.*

Key words: *irrigation, artificial irrigation, dry lands, statistics, cotton, governor.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Samarqand viloyati 1868 yilda Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingach, barcha sohalarda bo‘lgani singari iqtisodiy hayoti ham imperiya manfaatlariga moslashtirib chiqildi. Viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari, yer-suv munosabatlari turlari, qishloq xo‘jalik ekinlari va miqdorlari hamda ekinlarning maydonlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar arxiv hujjatlari, mustamlaka davri manbalari hamda statistik sharhlar va to‘plamlarda berib o‘tilgan. Samarqandda mustamlakachilik tuzumini o‘rnatishdan ko‘zlangan strategik vazifalardan biri viloyat iqtisodiy resurslaridan imperiyaning iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘lganligi sababli bu soha bilan bog‘liq ma‘lumotlar statistik to‘plamlarda muntazam yoritib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/METHODS)

XIX asr oxirlarida L.Sobolyev, G.A.Arandarenko, L.Kostenko, V.Radlov va A.Xoroshxinalarning asarlarida Zarafshon okrugi qishloq xo‘jaligiga oid muhim ma‘lumotlar o‘rin olgan. XX asr boshlarida esa Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi iqtisodiy siyosati masalalari bilan V.Zaorskaya va K.Aleksandr, S.Gulishambarov, A.Shaxnazarov, S.Konopka,

TARIX

V.Masalskiy, A.Gubarevich-Radobilskiy va boshqalar shug'ullanishgan. Mazkur mualliflar asarlarida Turkiston o'lkasi viloyatlari qatorida Samarqand viloyati iqtisodiy hayotiga ham to'xtalib o'tilgan.

Viloyat aholisining asosiy va azaliy mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik bo'lgan. Rus muallifi A.P.Xoroshinning asarida XIX asr 60-yillarida Zarafshon okrugidagi qishloq xo'jalik ekinlari ikki kategoriyaga bo'lib ko'rsatilgan: okrugning turli joylarida yetishtirilgan mahsulotlar – bug'doy, arpa va b.sh.; okrugning faqat ma'lum joylariga tegishli mahsulotlar – tariq, paxta va b.sh.[1]. A.P.Xoroshin asarida Zarafshon okrugida 1868 yilda olingan hosil miqdori haqida ma'lumotlar berilganda, yilning aynan mehnat qilnadigan oylari (may, iyun)da harbiy yurishlar bo'lganligi, yerlarni haydash va ekinlarni ekishdagi to'siqlar, ekin ekish ishlarining buzilishi va sug'orishdagi muammolar tufayli yaxshi hosil olishga erishilmaganligi ta'kidlab o'tiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS) Arxiv ma'lumotlariga ko'ra 1869 yil 4 oktabrda Kattaqo'rg'on bo'limining boshlig'i 404-sonli raportida Zarafshon okrugi boshlig'iga Kattaqo'rg'on bozorlaridagi mahsulotlar narxlari to'g'risida quyidagicha ma'lumot berib o'tgan: Tozalanmagan paxta – 5 rubl 80 tanga; oq tamaka – 10 rubl; ko'k tamaki – 9 rubl botmon; zig'ir – 6 rubl; kunjut – 8 rubl [2]. Shuningdek, 1869 yil oktabrda Kattaqo'rg'on bo'limi rahbari Zarafshon okrugi boshlig'iga Kattaqo'rg'on bo'limidagi bozorlar soni, bozor kunlari va bozor savdosi haqida ham ma'lumotlar taqdim etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bo'limdagi uchta tumanda bozorlar bo'lgan: Kattaqo'rg'on (Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Jom, Oqtepa, Chimboy, Zirabuloq), Payshanba (Payshanba, Yurgam, Ming, Oqtepa, Moybuloq) va Mitan (Mitan, Tursun)[2.19-20]. Mazkur bozorlardagi do'konlar eshiklari doimo ochiq turgan va ularda g'alla, ipak va manufaktura mahsulotlari sotilgan. Yuqoridagi bozorlarda 4 rubldan 60 rublgacha bo'lgan miqdorlarda zakotchilar tomonidan bozor yig'implari olingan hamda savdogarlar va xaridorlar bozorga asosan kuzgi vaqtlarda (asosan oktabr oyida) oqib kelishgan. Mazkur ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, okrugning asosiy dehqonchilik vohalaridan bo'lgan Kattaqo'rg'on bo'limi hududlarida haftaning deyarli har bir kunida bozorlar bo'lib turgan.

Okrugda asosiy ekinlardan biri beda hisoblanib chorva uchun ozuqa manbalaridan biri bo'lgan. Undan yoz oyi davomida 4 martadan 5 martagacha o'rib hosil olingan. Bedaning narxi yilning turli vaqtlarida turli joylarda har xil narxlarda sotilgan. Masalan, Samarqandda 1871 yil yozida bir bog'i 1 rubl 40 tangagacha, qishda esa 4 rubldan 5 rublgacha, ba'zi paytlari hattoki 12 rublgacha sotilgan[3]. Okrug mahalliy aholisi uylarining hovlisida qovun, tarvuz, bodring, qovoq, bulg'or qalampiri, piyoz, sabzi, sholg'om, turp va turli ko'katlar yetishtirishgan. Mahalliy aholi uchun yilning katta qismida iste'mol qiladigan mahsulotlaridan biri qovun bo'lib, uni yetishtirish ancha qulay bo'lgan. Hosil yaxshi bo'lgan paytlarda bir tanob yerdan 10 mingdan 14 minggacha qovun olinib, bir deyatina yerdan 3000 rubldan 4200 rublgacha daromad olingan. Samarqand okrugida general Brodovskiy so'zlariga ko'ra bir tanob yerdan 5 ming donagacha qovun olingan[3.24].

G.A.Arandarenko ma'lumotiga ko'ra 1874 yilda okrugning 18 ta volostli Samarqand bo'limida Samarqand shahri bilan birgalikda 33175 ta xonadondagi 200000 nafar aholida 976 ta tuya, 6840 ta eshak, 52900 qoramol, 62120 ta qo'y, 9088 ta baytal va 15590 ta ayg'ir bo'lib, Samarqand bo'limida har bir xonadonga chorvachilikning yalpi narxi 70 rubldan to'g'ri kelishini hisoblab chiqqan. Bunda tuyaning o'rtacha narxi 60 r., eshakniki 12 r., qoramolniki 25 r., qo'yniki 5 r., baytalniki 18 r., ayg'ir 28 r., deb olinganda Samarqand bo'limida chorvachilikning yalpi qiymati 2343664 rubl bo'lib, har bir uy yoki xo'jalik uchun yalpi 70 rublni tashkil etgan [4].

1882 yilda okrugda dehqonchilik ekinlaridan quyidagicha hosil olingan: guruch 31447 pud ekilib, 496327 pud hosil bergan; kuzgi bug'doy 62875 pud ekilib, 529600 pud hosil olingan; bahorgi bug'doy 25844 pud ekilib, 302350 pud hosil olingan; arpa 23577 pud ekilib, 188090 pud hosil olingan; kartoshka 1133 pud ekilib, 6600 pud hosil olingan[5]. Unga ko'ra bu davrda kartoshka okrug bo'yicha faqat Samarqand bo'limida ekilgan va asosiy guruch yetishtiruvchi hudud ham Samarqand bo'limi hisoblanib, jami 469327 pud hosilning 408000 pudini, ya'ni 90 foizdan ortig'ini mazkur bo'lim bergan. Keyinchalik viloyatda paxta ekilishi kengayib borishi natijasida sholi va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari maydoni qisqarib, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshir bordi.

Okrugdagi yerlar sug'oriladigan yerlar, ko'chmanchi aholi uchun yaylovlar va oriq (unumsiz, hosil bermaydigan) dashtliklarga bo'lingan. Yaylovlarning katta qismi Jizzax va Xo'jand uyezdlariga to'g'ri kelgan. Okrugdagi jami 2400000 desyatina yerning 1300000 desyatini ko'chmanchilar uchun yaylov, 1108400 desyatini hosil bermaydigan oriq yerlar va atigi 191600 desyatini dehqonchilik qilingan[3. 2]. Bundan xulosa qilish mumkinki viloyatdagi yerlarning katta qismi hali ishlov berilmagan yerlar bo'lib, har 100 desyatina yerning 8 desyatini yaqinida dehqonchilik, 54 desyatini chorvalar uchun yaylov va 38 desyatini yaqin yer esa oriq yerlar va dashtliklar bo'lgan. O'lka bo'yicha dehqonchilik qilishga bir muncha qulay sharoitlar Farg'ona viloyati va Zarafshon okrugida bo'lib, ulardagi ishlov beriladigan dashtliklar taxminan o'lka hududining 1/12 qismini egallagan edi. Amudaryo bo'limidagi o'troq xo'jaliklar bo'lim umumiy hududining 1/200 qismidan ko'prog'ini egallagan va o'lka bo'yicha eng oxirgi o'rinda turgan.

Okrugda dehqonchilik qilish uchun qulay imkoniyat va sug'orish manbalari mavjud bo'lgan. Okrugdagi yerlarni sug'oradigan asosiy manba Zarafshon daryosi bo'lib, u Tog'li tumanlar (Panjikent), Samarqand va Kattaqo'rg'on uyezdlarini sug'organ[3. 5]. Viloyatning janubiy qismlarini Zarafshon daryosi sug'organ bo'lsa, shimoli-sharqiy qismlarini Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh qismlaridagi Sirdaryo suvi sug'organ [6].

Zarafshon daryosi sug'oradigan yerlar 1880 yilda okrug bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: Tog'li tumanlar 77725 tanob (20240 desyatina), Samarqand bo'limi 292740 tanob (76234 desyatina), Kattaqo'rg'on bo'limi 124152 tanob (32331 desyatina). Okrug bo'yicha jami 494617 tanob yoki 128806 desyatina yerni sug'organ[3. 6]. Ushbu sug'oriladigan yerlar bo'yicha statistik ma'lumotlarga ko'ra okrugda Samarqand bo'limi birinchi, Kattaqo'rg'on bo'limi ikkinchi va Tog'li tumanlar oxirgi o'rinda turgan. Okrugdagi sug'oriladigan yerlar miqdori bo'yicha arxiv ma'lumotlarida ham shunga yaqin ma'lumot berib o'tilgan. Unga ko'ra, ruslar 1874 yilda Zarafshon okrugidagi sug'oriladigan yerlarni 128818 $\frac{3}{4}$ desyatini tashkil etishini hisoblab chiqqan va ular barchasi Zarafshon daryosi suvi bilan sug'orilgan[7]. Demak, mazkur ikki raqam orqali okrugdagi sug'oriladigan yerlar miqdori taxminan shuncha bo'lganligini bilib olish mumkin.

Bu haqida rus muallifi G.A.Arandarenko ham o'z asarida[4. 338] sug'orish ishlarini rivojlantirish orqali katta miqdordagi ishlov berilmagan yerlarni unumdor holatga olib kelib qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish mumkinligini aytib o'tgan.

Okrug 1887 yildan viloyatga aylantirilib, hududiy maydoni kengaygach viloyatdagi ishlov beriladigan yerlar miqdori oshib bordi. Jumladan, 1887 yilda viloyatdagi sug'oriladigan va ishlov beriladigan yerlarning umumiy miqdori 573969 desyatini teng bo'lgan[8]. Boshqa bir manbaga ko'ra keyingi o'n yillikda bu miqdor kamayib, 1897 yilda 857847 nafar aholiga 501924 desyatini yoki har bir kishiga 0,58 desyatidan to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin [9]. K.Palening ma'lumotiga ko'ra viloyatdagi asosiy dehqonchilik rivojlangan hududlar Samarqand va Kattaqo'rg'on uyezdlari, pastroq rivojlangan hudud Jizzax uyezdi bo'lib, 1908 yilda viloyatda jami sug'oriladigan yerlar 480016 desyatini (4051 kv. verst) ni tashkil etib, sug'orish ishlari 23 ta Ariq-oqsoqollari va 379 miroblar tomonidan tashkillashtirilgan [10]. 1914 yilga kelib viloyatda 94 ta katta va 988 ta kichik ariqlar bo'lib, 1001850 tanob (400700 desyatini) yerni sug'organ[11]. Ushbu raqamlardan o'tgan 40 yil davomida viloyatdagi sug'oriladigan yerlar 128818 desyatidan 400700 desyatini yoki deyarli uch barobarga oshganligini ko'rish mumkin. Ushbu o'zgarishlar rus ma'muriyatini ko'proq boylik orttirish maqsadida hudud imkoniyatlaridan foydalanish yo'lidagi siyosati natijasi bo'lgan va undan oddiy xalq hech qanday manfaat ko'rmagan.

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 1910 yilda viloyatda ekin ekiladigan umumiy maydon 465060 desyatini tashkil etib, katta qismida bug'doy, qolgan qismlarida esa arpa, guruch, jo'xori, mosh, no'xot, kartoshka va boshqa ekinlar ekilgan[12]. Mazkur raqamlar imperiya vaziyatdan kelib chiqqan holda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida ekiladigan bug'doy maydonlari miqdorini ushbu davrda boshqa ekinlarga nisbatan oshirganligini ko'rsatadi. 1910 yilda viloyatdagi jami sug'oriladigan yerlar miqdori esa 700 ming desyatini yaqin bo'lgan[12. 45].

Viloyat statistika boshqarmasi tomonidan nashr etilgan "Samarqand viloyati sharhlari" va "Samarqand viloyati ma'lumotnoma kitoblari" hamda statistikaga oid arxiv fondlaridagi ishlarda uyezdlardan olingan dehqonchilikka oid ma'lumotlarda ob-havo sharoiti tufayli kam yoki ko'p hosil olinganligi hamda hisobot yilida bahorda ob-havo qanday kelganligiga doir ma'lumotlar uyezdlar

TARIX

kesimida yilma-yil keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin. Demak, ba'zi yillarda hosil miqdorining oldingi yillarga nisbatan kamayib yoki aksincha ortib ketishi tabiiy sharoit bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, tabiiy sharoitdan tashqari boshqa sabablar ham qishloq xo'jaligi ishlarida muammolar keltirib chiqargan. Jumladan, statistik hisobotlarda chigirtkalar hujumi zararlari va ularga qarshi olib borilgan kurashlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Chigirtkalar hujumi qishloq xo'jaligiga katta talafot yetkazganidan tashqari, ularga qarshi kurashish uchun rus ma'muriyati katta kuch va mablag' sarflashga majbur bo'lgan.

Samarqand viloyat qo'mitasi tomonidan 1898 yilda viloyat uyezdlaridagi quyidagi nuqtalarda chigirtkalar yig'iladigan joylar borligi aniqlangan: Jizzax uyezdida – Mirzacho'l, Xo'jand uyezdida – 4 ta g'arbiy volost, Samarqand uyezdida – 2 ta tog'li volost va Kattaqo'rg'on uyezdida – Chimboy cho'lidagi uncha katta bo'lmagan maydon[13]. 1898 yilda chigirtkalar hujumi ta'sirida Jizzax uyezdida 11594 desyatina maydondagi hosil nobud bo'lib, ko'rilgan moddiy zarar 132960 rublni tashkil etgan. 1898 yilda viloyatdagi chigirtkalardan asosiy zarar ko'rgan hudud (99 foiz)lar Jizzax va Xo'jand uyezdari hisoblangan[13. 153-154]. Lekin, viloyatda chigirtkalar talafot yetkazgan hududlar ketma-ketligi uyezdlar bo'yicha turli yillarda turlicha bo'lgan. Ya'ni, faqat Jizzax va Xo'jand uyezdari asosiy zarar ko'ruvchi hududlar bo'lib qolmay, XX asr boshlarida ma'lum yillarda Samarqand va Kattaqo'rg'on uyezdari ham juda katta zarar ko'rgan. Jumladan, 1900 yilda chigirtkalardan zarar ko'rgan maydonlar hududlar kesimida: Samarqand uyezdida – 63 desyatina, Kattaqo'rg'on uyezdida – 38 desyatina, Jizzax uyezdida – 5046 desyatina Xo'jand uyezdida – 9901 desyatina, jami 15048 desyatina maydon. 1902 yilga kelib ushbu raqamlar butunlay o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin: Jizzax uyezdida – 11203 desyatina, Samarqand uyezdida – 9422 desyatina, Kattaqo'rg'on uyezdida 3243 desyatina va oxirgi o'rinda Xo'jand uyezdida – 1400 desyatina, viloyat bo'yicha jami – 25268 desyatina maydonni egallagan[13. 160]. Mazkur statistik raqamlar Xo'jand uyezdida chigirtkalarga qarshi samarali kurashilganligi tufayli 1902 yilda 1900 yilga nisbatan keskin kamayish bo'lganligini ko'rsatadi.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va dehqonlarga taklif hamda tavsiyalar berib borish uchun xo'jalik sohalari bo'yicha inspektorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan edi. 1913 yilda viloyatda quyidagi tarkibda inspektorlar bo'lgan: Paxtachilik bo'yicha Sreten posyolkasidagi O'rta Osiyo temir yo'lining Xilkovo stansiyasida (Armin Petrovich Lokk), Nau qishlog'ida (Mixail Aleksandrovich Yuzenkov), Nadejdinskoye qishog'ida (Pavel Dmitriyevich Deryabin), Golodnaya Step stansiyasida (Ivan Nikolayevich Salin), Jizzax shahrida (Gerasim Sergeyeovich Ovsyanik), Kattaqo'rg'on uyezdi Chelak qishlog'ida (Velgelm Avgustovich Rittix), Kattaqo'rg'on uyezdi Yangiqo'rg'on qishlog'ida (Fedor Nikolayevich Galushkin), Samarqand uyezdi Polvonariq volostining Kulbasti qishlog'ida (Fedor Ivanovich Suyatin); Quruq yerlar bo'yicha Samarqand shahrida (Petr Pavlovich Medvedev); Bog'dorchilik bo'yicha: Samarqand shahrida Berashaginskiy degan joyda (inspektor Nikolay Pavlovich Ilyuxin); uzumchilik bo'yicha Samarqand shahrida Mixail Ivanovich Bekin; Ipakchilik bo'yicha Samarqand shahridagi Aleksandrovsкая degan joyda Nikolay Yefimovich Yegorov[14]. Shu bilan birgalikda viloyat aholisi uchun agronomlik yordamlari ham yo'lga qo'yilgan edi. O'g'itlarni davlat tomonidan sotish va qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqarish uchta joyda yo'lga qo'yilgan: Samarqand shahri, Mirzacho'l va Sreten qishlog'ida[14. 52]. Agronomlar shaxsiy tarkibi: viloyat agronomlik boshqarmasi; paxtachilik bo'yicha 7 nafar instruktor; qishloq xo'jaligining quruq yerlar, uzumchilik, bog'dorchilik va ipakchilik sohalari bo'yicha 4 nafar instruktorlardan iborat bo'lgan. Agronomlar shaxsiy tarkibining faoliyatidagi asosiy vazifasi mahalliy paxtachilikni ko'tarish bo'lgan. Aholiga yerga ishlov berishni o'rgatish jarayonida paxtachilik madaniyati bilan ratsional tanishtirish hamda targ'ibot ishlarida rus qishloqlarida tashkil etilgan namunaviy uchastkalar katta o'rin tutgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION) Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Samarqand ruslar tomonidan bosib olingach qishloq xo'jaligida quyidagi o'zgarishlar yuz berganligi aniqlandi:

- viloyatning iqtisodiy imkoniyatlaridan maksimal foydalanish maqsadida hududdagi yer-suv munosabatlari turlari, qishloq xo'jalik ekinlari va miqdorlari hamda ekinlarning maydonlari to'g'risidagi statistik ma'lumot to'plash tizimi yo'lga qo'yildi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari va narxlari hamda soliqlar imperiya manfaatlariga moslashtirildi;

- imperiyaning yuritgan noto'g'ri iqtisodiy siyosati tufayli viloyatda paxta ekilishi kengayib sholi va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari maydoni qisqardi va natijada oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshir bordi;

- viloyatdagi sug'oriladigan, sug'orilmaydigan, lalmi va foydalanilmaydigan yerlar miqdori aniqlanib, amirlik davridagi sug'orilish tizimi va uning boshqaruvi rus ma'muriyati izmiga o'tkazildi;

- rus ma'muriyati tomonidan 1874-1914 yillardagi 40 yil davomida viloyatdagi sug'oriladigan yerlar 128818 desyatinadan 400700 desyatinaga yoki deyarli uch barobarga oshirildi. Ushbu o'zgarishlar rus ma'muriyatini ko'proq boylik orttirish maqsadida hudud imkoniyatlaridan foydalanish yo'lidagi siyosati natijasi bo'lgan va undan oddiy xalq hech qanday manfaat ko'rmadi;

- qishloq xo'jalik ekinlarini saqlab qolish maqsadida chigirtkalarga qarshi kurashish chora-tadbirlari ishlab chiqildi;

- ekin ekiladigan maydonlar va olinadigan hosil miqdorlari oshib borishi imperiya manfaatlari uchun bo'lib, xalqning qashshoqlashishi va podsho hukumatining boyishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Xoroshxina. A.P. Sbornik statey kasayushixsya Turkestanskogo kraya. – SPb., 1876. – S. 161.
2. O'zMA I-5-fond, 1-ro'yxat, 11-yig'majild. 16-varaq.
3. Turkestanskiy kray opit voyenno-statisticheskogo obozreniya Turkestanskogo voyennogo okruga. Materiali dlya geografii i statistiki Rossii. Sostavil polkovnik generalnogo shtaba L.O. Kostenko. Tom III. SPb., 1880. – S. 22.
4. Arandarenko G.A. Dosugi v Turkestane 1874–1889. – SPb.: Tip. M.M. Stasyudevicha. 1889. – S. 133.
5. O'zMA I-5-fond, 1-ro'yxat, 3504a-yig'majild. 1-varaq.
6. Spravochnaya knijka Samarkandskoy oblasti. 1906 g. Vip. VIII. – Samarkand, 1906. – S. 304.
7. O'zMA I-1-fond, 1-ro'yxat, 63-yig'majild, 61-varaq.
8. Obzor Samarkandskoy oblasti za 1887 god. – Samarkand, 1888. – S. 1.
9. Demidov A.P. Ekonomicheskoye ocherki xlopkovodstva, xlopkovoy trgovli i promishlennosti v Turkestane. – M., 1926. – S. 27.
10. Orosheniye v Turkestane. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya, proizvedennoy po visochayshemu poveleniyu Senatorom Gofmeysterom grafom K.K. Palenim. – SPb., 1910, – S. 31-38; Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910 A Comparison with British India. Oxford University Press, 2008. P. 252.
11. O'zMA I-18-fond, 1-ro'yxat, 7708-yig'majild, 59-62-varaqlar.
12. Obzor Samarkandskoy oblasti za 1910 god. – Samarkand, 1912. – S. 13.
13. Spravochnaya knijka Samarkandskaya oblasti. Vip. X. – Samarkand, 1912. – S. 152.
14. O'zMA I-18-fond, 1-ro'yxat, 14122-yig'majild. 17-varaq.

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)